Sifatli ta’lim – yorqin kelajak


TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ILMIY XABARNOMA

ISSN: 3060-4761

ILMIY JURNAL

№ 2 (06) IYUN 2026



SIFATLI TA'LIM – YORQIN KELAJAK

ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARNOMASI

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE
PEDAGOGICAL INSTITUTE

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

TERDPI ILMIY XABARNOMASI

2026/ № 2



O'zR OAK ning 2025-yil 24-sentabrdagi
375/5-sonli qarori bilan milliy ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan

Termiz – 2026

ISSN: 3060-4761

Muassis:
Termiz davlat pedagogika instituti

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
Jurnal bir yilda bosma va elektron (o'zbek, rus, ingliz tillarida) shaklda chop etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 6-iyundagi № 303723-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Matnlarda foydalanilgan manba, ko'chirma, mazmun va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgar. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 26,25
Ofset bosma. Ofset qog'ozi.
Adadi: 100 nusxa
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma: 174
Tahririyat manzili: Termiz tumani "Yangiobod" MFY, At-Termiziy ko'chasi 1-A uy.
"TerDU bosmaxonasi"da chop etildi.
Bosmaxona manzili: Termiz shahri, A.Navoiy ko'chasi, 42 uy.

BOSH MUHARRIR:
Xasanov Azizbek, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Kuldasheva Shaxnoza, kimyo fanlari doktori (DSc), professor

TEXNIK MUHARRIR:
Qurbanov Abdimalik, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MAS'UL KOTIB:
To'rayev Ro'ziboy, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIR HAY'AT A'ZOLARI:
Bernd Müller-Jacquier,f.f.d, professor (Germaniya)
Ponomaryova Lyudmila, p.f.d, professor (Rossiya)
Gerasyov Aleksandr, p.f.d, professor (Rossiya)
Buligina Yelena, f..f.d, professor (Rossiya)
Eshmetov Izzat, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Abdikamalova Aziza, k.f.d, professor (O'zbekiston)
Salixanova Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Jumaeva Dilnoza, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Sagdullayeva Dilafruz, t.f.d, professor (O'zbekiston)
Turamuratov Ulug'bek, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Norbo'tayev Xo'shboq, p.f.d,(DSc) professor (O'zbekiston)
To'rayev Rasul, f.m.f.n, professor (O'zbekiston)
Shamuratova Nagima, q.x.f.d. (DSc), professor (O'zbekiston)
Saidov Chorixon, f.m.f.d, professor (O'zbekiston)
Bozorov Lutfulla, k.f.d., (DSc) (O'zbekiston)
Mahmudov Yusup, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Xudoyqulov Xol, p.f.d, professor (O'zbekiston)
Alimov Parda, f.f.d, professor (O'zbekiston)
Xoliqnazarov Begali, b.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Qodirov Baxtiyor, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Tojiyev Panji, t.f.d,(DSc), dotsent (O'zbekiston)
Qosimov Shavkat, PhD, professor (O'zbekiston)
Saidaxmatov Sharifbek, t.f.f.d., PhD,dotsent (O'zbekiston)
Xudoyberdiyev Shuxrat, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Umarov Aziz, PhD (O'zbekiston)
Abduraxmonov Eldor, k.f.d, ,(DSc), professor (O'zbekiston)
Shabbazova Dilfuza, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nuritdinova Xurshida, PhD (O'zbekiston)
Quvvatova Mohira, PhD (O'zbekiston)
Mardonova Lobar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Nurmatov Norqobil, q.x.f.d, (DSc), professor (O'zbekiston)
Ismailov Botir, PhD, (O'zbekiston)
Sattorov Sardor, PhD (O'zbekiston)
Allamuradov Anvar, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Kabilova Sayyora, PhD (O'zbekiston)
Ismailov Murodulla, PhD, dotsent (O'zbekiston)
Eshmuradov Olmosbek, PhD,dotsent (O'zbekiston)
Isayev Oybek, Phd (O'zbekiston)
Norliyev Rustam, f.f.n, dotsent (O'zbekiston)
Berdiyeva Muhabbat, Phd, professor (O'zbekiston)
Shirnazarova Zamira, Phd,dotsent (O'zbekiston)
Narbasheva Mexri, p.f.n, professor (O'zbekiston)
Kuzimurotova Dinara, Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri (O'zbekiston)

ISSN: 3060-4761

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Хасанов Азизбек, доктор педагогических наук (DSc), профессор.

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА:
Кулдашева Шахноза, доктор химических наук (DSc), профессор

ТЕХНИЧЕСКИЙ РЕДАКТОР:
Курбанов Абдималик, доктор философии по техническим наукам (PhD)

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:
Тураев Рузибой, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:
Бернд Мюллер-Жакье, д.ф.н., профессор (Германия)
Пономарева Людмила, д.п.н., профессор (Россия)
Герасёв Александр, д.п.н., профессор (Россия)
Булыгина Елена, д.ф.н., профессор (Россия)
Эшметов Иззат, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Абдикамалова Азиза, д.к.н., профессор (Узбекистан)
Салиханова Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Джумаева Дильноза, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Сагдуллаева Дилафруз, д.т.н, профессор (Узбекистан)
Турамурадов Улугбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Норбутаев Хушбок, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Тураев Расул, к.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Шамуратова Нагима, д.с.н, профессор (Узбекистан)
Саидов Чорихон, д.ф.м.н, профессор (Узбекистан)
Бозоров Лутфулла, д.т.н. (Узбекистан)
Махмудов Юсуп, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Худойкулов Хол, д.п.н, профессор (Узбекистан)
Алимов Парда, ф.ф.н, профессор (Узбекистан)
Халикназаров Бегали, к.б.н, доцент (Узбекистан)
Кодиров Бахтиёр, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Таджиев Панджи, д.т.н., доцент (Узбекистан)
Касимов Шавкат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Саидахматов Шарифбек, д.ф.и.н, доцент (Узбекистан)
Худойбердиев Шухрат, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Умаров Азиз, д.ф.п.н, (Узбекистан)
Абдурахманов Эльдор, д.х.н., профессор (Узбекистан)
Шаббазова Дилфуза, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Нуритдинова Хуршида, д.ф.п.н (Узбекистан)
Кувватова Махира, д.ф.п.н (Узбекистан)
Мардонова Лобар, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нурматов Норкабил, д.с.н., профессор (Узбекистан)
Исмаилов Ботир, д.ф.п.н (Узбекистан)
Сатторов Сардор, д.ф.п.н (Узбекистан)
Алламурадов Анвар, д.ф.п.н. доцент (Узбекистан)
Кабилова Сайёра, д.ф.ф.н, (Узбекистан)
Исмаилов Муродулла, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Эшмурадов Олмосбек, д.ф.п.н, доцент (Узбекистан)
Исаев Ойбек, д.ф.и.н (Узбекистан)
Норлиев Рустам, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бердиева Мухаббат, д.ф.п.н, профессор (Узбекистан)
Ширназарова Замира, д.ф.ф.н, доцент (Узбекистан)
Нарбашева Мехри, к.п.н. профессор (Узбекистан)
Кузимуротова Динара, редактор редакционно-издательского отдела, (Узбекистан).

Основатель:
Термезский государственный педагогический институт

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТЕРМЕЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА

Журнал издается в печатном и электронном виде (на узбекском, русском, английском языках) в течение одного года.

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан свидетельством № 303723 от 6 июня 2024 года.

Авторы несут ответственность за достоверность источников, выдержек, содержания и информации, используемых в текстах. При копировании из журнала необходимо указывать источник.

Разрешение получено: 12.06.2026.
Размер бумаги: 70x85.
Печатная форма: 26,25.
Офсетная печать.
Офсетная бумага.
Количество: 100 экз.
Цена указана по договорённой цене.
Заказ: 174
Адрес редакции: Термезский район, «Янгиабад» МФМ, улица Ат-Термизи, дом 1-А.
Отпечатано в типографии «ТерГУ».
Адрес типографии: город Термез,улица А.Навоий, дом 42.

ISSN: 3060-4761

Founder:
Termiz State Pedagogical Institute

SCIENTIFIC BULLETIN OF TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL

The magazine is published in printed and electronic form (in Uzbek, Russian, English) in one year.

Registered by the Information and Mass Communications Agency under the Presidential Administration of the Republic of Uzbekistan with certificate No. 303723 dated June 6, 2024.

The authors are responsible for the accuracy of the sources, excerpts, content and information used in the texts. When copying from a journal, the source must be noted.

Permission to print: 12.03.2026
Paper size: 70x85
Printing plate: 26.25
Offset printing.
Offset paper.
Quantity: 100 copies
Price at the agreed price.
Order: 174
Editorial address: Termez district, «Yangiabad» MCK, At-Termiziy street, 1-A.
Printed at the "TerSU printing house". Address: Termez city, A.Navoiy street, 42.

THE EDITOR-IN-CHIEF:
Xasanov Azizbek, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Kuldasheva Shakhnoza, Doctor of Chemical Sciences (DSc), Professor

TECHNICAL EDITOR:
Qurbanov Abdimalik, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences

RESPONSIBLE SECRETARY:
Turaev Ruziboy, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:
Bernd Müller-Jacquier, Doctor of Philological Sciences, Professor (Germany)
Ponomaryova Lyudmila, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Gerasyov Aleksandr, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Buligina Yelena, Doctor of Philological Sciences, Professor (Russia)
Eshmetov Izzat, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Abdikamalova Aziza, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Salikhanova Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Jumaeva Dilnoza, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Sagdullayeva Dilafruz, Doctor of Technical Sciences, Professor (Uzbekistan)
To'ramuratov Ulug'bek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Norbo'tayev Xo'shboq, Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
To'rayev Rasul, Candidate of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Shamuratova Nagima, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Prof. (Uzbekistan)
Saidov Chorikhon, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. (Uzbekistan)
Bozorov Lutfulla, Doctor of Technical Sciences (DSc), (Uzbekistan)
Mahmudov Yusup, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Khudoyqulov Khol, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Parda Alimov, Candidate of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Xoliqnazarov Begali, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor, (Uzbekistan)
Qodirov Baxtiyor, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Tojiyev Panji, Doctor of Technical Sciences (DSc), Associate Professor (Uzbekistan)
Qosimov Shavkat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Saidakhmatov Sharifbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Khudoyberdiyev Shuxrat, PhD (Uzbekistan)
Umarov Aziz, PhD (Uzbekistan)
Abduraxmonov Eldor, Doctor of Chemical Sciences, Professor (Uzbekistan)
Shabbazova Dilfuza, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nuritdinova Khurshida, PhD (Uzbekistan)
Quvvatova Mohira, PhD (Uzbekistan)
Mardonova Lobar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Nurmatov Norqobil, Doctor of Agricultural Sciences (DSc), Profess. (Uzbekistan)
Ismailov Botir, PhD (Uzbekistan)
Sattorov Sardor, PhD (Uzbekistan)
Allamuradov Anvar, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Kabilova Sayyora, PhD, (Uzbekistan)
Ismailov Murodulla, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshmuradov Olmosbek, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Isayev Oybek, PhD (Uzbekistan)
Norliyev Rustam, Candidate of Philosophical Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Berdiyeva Muhabbat, PhD, Professor (Uzbekistan)
Shirnazarova Zamira, PhD, Associate Professor (Uzbekistan)
Narbasheva Mexri, Candidate of Psychological Sciences, Professor (Uzbekistan)
Kuzimurotova Dinara, Editor, Editorial-Publishing Department (Uzbekistan)

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK 373.3.035
ORCID:0009-0006-5958-8381

XOLMO'MINOVA AZIZA ZAFAR QIZI
Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs tayanch doktoranti
E-mail: xolmuminovaa1999@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy va ijtimoiy kamolotida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish muammosi zamonaviy didaktik yondashuvlar prizmasi orqali tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interaktiv, muammoli va qadriyatga yo'naltirilgan didaktik metodlarning o'quvchilar xulq-atvoriga ta'sirini aniqlash va ularning samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy axborot uzatish modelidan ko'ra, didaktik o'yinlar va keys-stadi texnologiyalari orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarda hamdardlik, mas'uliyat va o'zaro yordam kabi axloqiy sifatlarni 24 foizga yuqori ko'rsatkichda shakllantiradi. Maqolada keltirilgan xulosalar boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlarini takomillashtirish hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: *boshlang'ich sinf, axloqiy qadriyatlar, didaktik yondashuv, pedagogik eksperiment, interaktiv metodlar, ma'naviy tarbiya, shaxs shakllanishi, ta'lim samaradorligi.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИДАКТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

АННОТАЦИЯ: В данной статье через призму современных дидактических подходов исследуется проблема формирования нравственных ценностей в личностном и социальном развитии учащихся начальных классов. Целью исследования является определение влияния интерактивных, проблемных и ценностно-ориентированных дидактических методов, применяемых в учебном процессе, на поведение учащихся и оценка их эффективности. Результаты исследования показывают, что уроки, организованные посредством дидактических игр и технологий кейс-стади, формируют у учащихся такие нравственные качества, как эмпатия, ответственность и взаимопомощь, на 24% эффективнее, чем традиционная модель передачи информации. Выводы, представленные в статье, служат важной основой для совершенствования учебных программ начального образования и разработки практических рекомендаций для учителей начальных классов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *начальные классы, нравственные ценности, дидактический подход, педагогический эксперимент, интерактивные методы, духовное воспитание, формирование личности, эффективность обучения.*

THE EFFECTIVENESS OF DIDACTIC APPROACHES IN SHAPING MORAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

ABSTRACT: This article examines the problem of forming moral values in the personal and social development of primary school students through the prism of modern didactic approaches. The purpose of the study is to determine the impact of interactive, problem-based, and value-oriented didactic methods used in the educational process on students' behavior and to evaluate their effectiveness. The results of the study show that lessons organized through didactic games and case-study technologies shape students' moral qualities such as empathy, responsibility, and mutual assistance with a 24% higher rate than the traditional information transfer model. The conclusions presented in the article serve as an important baseline for improving primary education curricula and developing practical recommendations for primary school teachers.

KEYWORDS: *primary school, moral values, didactic approach, pedagogical experiment, interactive methods, spiritual education, personality formation, educational effectiveness.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Insoniyat tarixining har bir bosqichida yosh avlod tarbiyasi, ayniqsa, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlovchi strategik vazifa bo'lib kelgan. Globallashuv sharoiti, axborot oqimining jadallashuvi va ijtimoiy-madaniy transformatsiyalar davrida yosh poydevor hisoblangan boshlang'ich sinf o'quvchilarining dunyoqarashini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida qurish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, shaxsning xulq-atvor me'yorlari, ijtimoiy aloqalarga kirishish ko'nikmalari va ma'naviy immuniteti aynan 6–10 yosh oralig'ida shakllanadi.

Pedagogika fanida boshlang'ich sinf yoshi psixologik jihatdan ta'sirchanlik, taqlidchanlik va atrof-muhitni hissiy idrok etish xususiyatlari bilan ajralib turishi isbotlangan. Shuning uchun ham ushbu bosqichda tizimli axloqiy tarbiyani amalga oshirish faqatgina nasihat va pand-nasihatlar shaklidagi monologik ta'lim bilan cheklana olmaydi. Bu o'rinda ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini o'z ichiga olgan maxsus didaktik tizim talab etiladi. Biroq bugungi maktab amaliyotida ko'pincha axloqiy tushunchalar o'quvchilarga tayyor qoidalar tarzida yodlatilishi, ularning real hayotiy vaziyatlarda qo'llanish mexanizmlari yetarlicha o'rgatilmasligi kuzatilmoqda. Ushbu nomuvofiqlik ta'lim jarayonida didaktik yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni va ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali asoslashni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotning obyekti boshlang'ich sinf o'quv jarayonida axloqiy tarbiyani tashkil etish tizimidan iborat. Predmeti esa ushbu jarayonda qo'llaniladigan didaktik yondashuvlar, metodik vositalar va ularning o'quvchilar ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni qaror toptirishdagi samaradorlik darajasidir. Bizning farazimizga ko'ra, agar boshlang'ich ta'limda an'anaviy tushuntirish-illyustrativ metodlardan muammoli va vaziyatli-modellashtiruvchi didaktik yondashuvlarga o'tilsa, o'quvchilarning axloqiy onglilik darajasi oshadi, ularda qadriyatlarni ijtimoiy xulq-atvorda namoyon etish ko'nikmalari muvaffaqiyatli shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Axloqiy qadriyatlar va ularni yosh avlod ongiga singdirish muammolari asrlar davomida dunyo va o'zbek pedagogik fikrining markazida bo'lib kelgan. Sharq uyg'onish davri mutafakkirlaridan tortib zamonaviy g'arb olimlarigacha bo'lgan tadqiqotchilar shaxs kamolotida didaktik va tarbiyaviy omillarning uzviyligini ta'kidlashgan. Sharq pedagogikasida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, keyinchalik esa Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy singari allomalarning asarlarida axloq va ilm uyg'unligi asosiy mezon sifatida ko'rsatilgan. Xususan, Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq va bu jarayonda muallimning didaktik mahorati naqadar muhimligini alohida qayd etadi [1]. Uning fikricha, axloqiy tushunchalar o'quvchiga shunchaki o'rgatilib qolmay, balki uning tabiati va odatiga aylanishi zarur.

Yevropa va jahon pedagogika fanida shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi didaktik tamoyillar asosida tadqiq etilgan. Yan Amos Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida ta'lim va tarbiyaning ajralmas birligini ochiqlab, maktab faqatgina bilim beradigan maskan emas, balki "insoniylik ustaxonasi" bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [2]. Johann Friedrich Herbart esa ta'limiy tarbiya (erziehender unterricht) konsepsiyasini ilgari surib, dars jarayonida har qanday o'quv materialining axloqiy yo'naltirilganligi uning didaktik qiymatini belgilashini isbotlagan [3].

XX asr va zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi yangicha talqin qilinmoqda. Jean Piaget va Lawrence Kohlberg tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi g'arb didaktikasida uzoq yillar yetakchilik qildi [4]. Kohlberg kontseptsiyasiga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari (konvensiyagacha bo'lgan va konvensional bosqich oralig'ida) axloqiy qoidalarni asosan tashqi ta'sirlar, mukofot va jazo hamda avtoritetlar talabi asosida qabul qiladilar. Shuning uchun ularga mo'ljallangan didaktik tizim ijtimoiy rollarni tushunishga ko'maklashishi lozim.

Rossiya pedagogik maktabi vakillaridan L.S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi [5]. Vygotskiy bolaning ma'naviy o'sishi uning kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyatida, ya'ni ijtimoiy muloqot jarayonida yuz berishini ko'rsatib bergan. Shuningdek, V.A. Suxomlinskiy boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda insoniylik, mehr-shafqat va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantirishda tabiat bag'ridagi darslar va ertak-didaktikaning ahamiyatini eksperimental asoslagan [6]. O'zbekistonlik olimlardan M.X. Tohtaxodjayeva rahbarligidagi tadqiqotlarda dars va darsdan tashqari faoliyatda milliy qadriyatlar tizimini o'quvchilarga yetkazishning pedagogik mexanizmlari yoritilgan [7]. Boshlang'ich ta'lim didaktikasining o'ziga xos jihatlari, xususan, kichik maktab yoshidagi bolalarning bilish faolligini oshirish va ularda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari R.G. Safarova ishlarida metodologik jihatdan chuqur tahlil etilgan [8]. Muallif boshlang'ich sinf darsliklarining integrativ xarakteri o'quvchilarda yaxlit dunyoqarash va tizimli qadriyatlar tarkib topishiga xizmat qilishini ko'rsatib o'tadi.

Biroq, amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda axloqiy tarbiya

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

umumiy pedagogik tavsiyalar darajasida qolib ketmoqda. Konkret fanlar (masalan, ona tili va o'qish savodxonligi, tarbiya, matematika) darslarida qanday didaktik modellar va interaktiv strategiyalar o'quvchining axloqiy refleksiyasini uyg'otishi masalasi yetarlicha eksperimental dalillar bilan ko'rsatilmagan. Ushbu maqola ayni shu bo'shliqni to'ldirishga, aniq didaktik yondashuvlarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini ochib berishga qaratilgan.

TADQIQOT METODLARI. Tadqiqotimiz 2024–2025 o'quv yillari davomida umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida tashkil etildi. Didaktik yondashuvlarning samaradorligini ob'ektiv baholash maqsadida sinaluvchilar ikki guruhga ajratildi:

— Nazorat guruhi (ng): jami 114 nafar o'quvchi. Bu guruhda darslar an'anaviy tushuntirish, matnni o'qish, savol-javob va tayyor axloqiy xulosalarni bayon qilish shaklida olib borildi.

— Eksperimental guruh (eg): jami 118 nafar o'quvchi. Bu guruhda o'quv jarayoni muammoli, vaziyatli, o'yinli va hamkorlikka asoslangan didaktik yondashuvlar majmuasi vositasida tashkil qilindi.


Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-pedagogik metodlar kompleksidan foydalanildi:

1. Muammoli-vaziyatli didaktik modellashtirish: darslarda o'quvchilarga yodlangan qoidalar o'rniga axloqiy dilemma (tanlov) mavjud bo'lgan hayotiy hikoyalar taqdim etildi. Masalan, «do'stning siri va haqiqat» mavzusidagi didaktik keyslar orqali o'quvchilar sadoqat va adolat qadriyatlari o'rtasidagi muvozanatni tahlil qilishdi.

2. Kuzatish va sotsiometrik baholash: o'quvchilarning darsdagi o'zaro muloqoti, guruhlarda ishlash davridagi yordam ko'rsatish tayyorligi va nizo holatlaridagi xulq-atvori maxsus baholash xaritalari orqali qayd etib borildi.

3. L. Kohlberg va og'zaki so'rovnomalar modifikatsiyasi: bolalarning axloqiy tushunchalarni (yaxshilik, yomonlik, vijdon, mas'uliyat) anglash darajasini aniqlash maqsadida diagnostik suhbatlar o'tkazildi.

Quyidagi jadvalda eksperiment boshidagi va yakunidagi ko'rsatkichlarning mezonlar kesimidagi qiyosiy dinamikasi aks ettirilgan:



Guruhlar va bosqichlar	Kognitiv mezon (Bilish)	Hissiy-motivatsion mezon (Munosabat)	Xulq-atvor mezoni (Amal qilish)
Nazorat guruhi (Eksperiment boshi)	42,1%	38,6%	35,2%
Nazorat guruhi (Eksperiment yakuni)	46,5%	41,2%	37,8%
Eksperimental guruh (Eksperiment boshi)	41,8%	39,1%	34,9%
Eksperimental guruh (Eksperiment yakuni)	71,3%	68,4%	61,2%

ISSN: 3060-4761

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, an'anaviy ta'lim berilgan nazorat guruhida kognitiv ko'rsatkich atigi 4,4 foizga o'sgan bo'lsa, xulq-atvor mezonida deyarli o'zgarish bo'lmagan (atigi 2,6 foiz o'sish). Bu an'anaviy darslarda bolalar nima yaxshi va nima yomonligini eshitgan bo'lsalar-da, uni o'zlarining kundalik odatlariga aylantira olmaganliklarini ko'rsatadi.

Aksincha, eksperimental guruhda interaktiv va vaziyatli didaktik modellardan foydalanish natijasida kognitiv mezon 29,5 foizga, eng muhimi, amaliy xulq-atvor mezoni esa 26,3 foizga ko'tarilgan. O'quvchilar nafaqat axloq qoidalarini yodlab olishdi, balki guruh loyihalarida, o'yin elementlarida hamkorlik qilishni, bir-birlarini tinglashni va qiyin vaziyatda jamoaga yordam berishni o'rgandilar.

Didaktik o'yinlar (masalan, "yaxshilik daraxti", "adolatli hakam") davomida bolalarda ijtimoiy rollarni ijro etish orqali empatiya (hamdardlik) hissi rivojlandi. Matematika darslarida ham ekologik va tejamkorlik xarakteridagi matnli masalalarning qo'llanilishi, ona tili darslarida esa matn ustida ishlashda qahramonlarning xatti-harakatlariga o'quvchining shaxsiy munosabatini bildirishga qaratilgan didaktik topshiriqlar tizimi o'z samarasini berdi.

MUHOKAMA. Tadqiqotimiz natijasida olingan ma'lumotlar boshlang'ich ta'lim pedagogikasida uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lgan deklarativ (shunchaki e'lon qiluvchi) tarbiya inqirozini yana bir bor tasdiqlaydi. An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi tayyor ma'naviy xulosaning yetkazib beruvchisi rolini o'ynaydi. Bu usul bolaning kognitiv sohasiga qisman ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq uning hissiy va motivatsion qatlamlariga yetib bormaydi. Buni l. Kohlberg ham o'z izlanishlarida ta'kidlab, bolalarga shunchaki qoidalarni o'rgatish ularning axloqiy rivojlanish darajasini o'zgartirmasligini, chunki haqiqiy axloqiy o'sish kognitiv ziddiyat va uni hal qilish jarayonida yuzaga kelishini aytgan edi [4].

Biz tomonimizdan qo'llanilgan didaktik yondashuvlarning muvaffaqiyati shundaki, ular bolani passiv tinglovchidan faol sub'ektga aylantirdi. Muammoli vaziyatlarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchisi o'zini qahramon o'rniga qo'yib ko'radi va ichki tanlovni amalga oshiradi. Bu jarayon l.s. vygotskiyning dars jarayonida muloqot va ijtimoiy faoliyat orqali ichki sifatlarni shakllantirish (internalizatsiya) haqidagi qonuniyatlariga to'la mos keladi [5].

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda didaktik yondashuvlarni quyidagi uchta bosqichda amalga oshirish yuqori samara beradi:

1.Hissiy-idrok bosqichi: didaktik vositalar (ertaklar, vizual obrazlar, musiqiy lavhalar) orqali o'quvchida axloqiy hodisaga nisbatan hissiy munosabat (achinish, quvonish, g'ururlanish) uyg'otish.

2.Tahliliy-mulohaza bosqichi: muammoli savollar va kichik munozaralar yordamida bolani nima sababdan bunday yo'l tutish kerakligi haqida o'ylashga majbur qilish.

3.Amaliy-faoliyat bosqichi: o'quv loyihalari, jamoaviy didaktik o'yinlar va kundalik maktab hayotida egallangan tushunchalarni xulq-atvorda sinab ko'rish.

Ushbu tizimli yondashuv o'quvchilarning maktab ijtimoiy muhitiga moslashishini yengillashtiradi, sinfdagi bezorilik (bulling) va nizoli holatlarning sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Tadqiqotning cheklanganligi shundaki, u barcha fanlar kesimida to'liq qamrab olinmagan bo'lib, kelgusida har bir o'quv fanining xususiy didaktikasida axloqiy qadriyatlarni integratsiya qilish metodikasini yanada chuqurroq ishlab chiqish talab etiladi.

XULOSA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'tkazilgan nazariy tahlillar va amaliy tajriba-sinov ishlari asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning axloqiy tarbiyasi samaradorligi dars jarayonida qo'llaniladigan didaktik yondashuvlarning xarakteriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Tayyor qoliplarni tushuntirishga asoslangan an'anaviy yondashuv bolaning xulq-atvorini o'zgartirishda past natija ko'rsatadi.

Ikkinchidan, muammoli vaziyatlarni modellashtirish, rolli va didaktik o'yinlar hamda hamkorlikdagi loyihaviy faoliyat o'quvchilarning axloqiy onglilik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bu yondashuvlar eksperimental guruhda kognitiv va amaliy mezonlarning o'rtacha 25-30 foizga o'sishini ta'minladi.

Uchinchidan, boshlang'ich sinf darslarida axloqiy yo'naltirilgan didaktik tizimni joriy etish ta'lim mazmunini insonparvarlashtirishga, o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini uyg'un holda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy tavsiya sifatida, darslik mualliflariga boshlang'ich sinf o'quv adabiyotlariga axloqiy dillemalar va qadriyatga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlarni ko'proq kiritish, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida esa bo'lajak o'qituvchilarni darsning tarbiyaviy imkoniyatlarini modellashtirishga maxsus tayyorlash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.1.Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.

2.Коменский Я.А. Великая дидактика // Избранные педагогические сочинения. – Москва: педагогика, 1982. – т. 1. – с. 242-476.

3.ГЕРБАРТ И.Ф. Главнейшие педагогические сочинения / под ред. Прим. И со вступит. Статьей А.Д. Алферова. – Москва: К.И. Тихомиров, 1906. – 365 с.

4.Колберг л. Стадии морального развития и моральное воспитание // психология личности: тексты / под ред. Ю.б. гиппенрейтер, а.а. пузырея. – Москва: изд-во моск. Ун-та, 1982. – с. 192-198.

5.Выготский Л.С. Педагогическая психология / под ред. В.в. давыдова. – Москва: Педагогика-Пресс, 1999. – 536 с.

6.Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. – Киев: Радянська школа, 1974. – 288 с.

7.Тохтахўжаева М.Х. ва бошқ. Педагогика: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. – 400 б.

8. Сафарова Р.Г. Бошланғич таълим мазмунини модернизациялашнинг дидактик асослари. – Тошкент: Фан, 2008. – 216 б.